

«BO‘LAJAK O‘QITUVCHI FAOLIYATINING MAZMUNI VA MUOMALA MADANIYATI»

*Umarova Bahora Rahimjonovna*

*Sirg‘ali tibbiyot kolleji katta o‘qituvchisi  
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, bugungi kun o‘qituvchisiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar, o‘qituvchilik kasbi va uning pedagogik mahorati asoslari yoritib berilgan. Pedagogik faoliyatning asosiy mazmuni, turlari, o‘qituvchining pedagogik va muloqot madaniyati muammolari, pedagogik texnika masalalari tahlil etilgan. Ta‘lim islohotlarining hozirgi bosqichdagi vazifalaridan kelib chiqqan holda bo‘ljak o‘qituvchilar dars mashg‘ulotlarida, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, umumlashtirish, ommalashtirish va amaliyotga tadbiq qilishda pedagogik mahorat va muomala madaniyatiga e‘tibor berish sirlari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** pedagogika, o‘qituvchi, kommunikativ qobiliyat, pedagogik muloqot, ta‘lim – tarbiya, o‘quvchi, ijodkorlik.

Pedagogika olamida o‘qituvchining mahorati uning samarali natijalarga erishishi, pedagogik faoliyatining yuqori darajasi sifatida tushuniladi. O‘qituvchining pedagogik mahorati - bu ta‘lim-tarbiya sa‘atining yuqori va doimiy ravishda rivojlanib, takomilashib boradigan sa‘atidir. Mahorat turli hil pedagogik masalalarni samarali yechishda, shuningdek, o‘quv-tarbiyaviy ishlarni talab darajasida tashkil etish jarayonida namoyon bo‘ladi. Lekin bu mahoratning mazmuni ushbu faoliyatlarni vujudga keltiradigan o‘qituvchining shaxsiy sifatleri bilan bog‘liq. Demak, pedagogik mahoratning mazmunini chuqur anglashi uchun dastavval pedagogik faoliyat nima ekanligi tushunib olmog‘imiz lozim.

O‘qituvchi shaxsining shakllanishi murakkab va turli xil ziddiyatlarga ega jarayon bo‘lib, bu o‘qituvchining o‘z fani yuzasidan bilimlarni egallashi va o‘zlashtirishlari emas, balki uning o‘zini har tomonlama, yetuk va axloqiy, kasbiy- pedagogik sifatlerini doimiy ravishda rivojlantirib borishidir. Uning shakllanish jarayoni pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilarining turli xil ta‘siri, ijtimoiy muhit, pedagogika fanining amaliyotining, umuman jamiyatning ijtimoiy talablariga bog‘liqdir.

Har qanday faoliyat singari pedagogik faoliyat ham o‘z komponentlariga ega. Bular: maqsad, ob‘ekt, sub‘ekt va vosita. Pedagogik faoliyatning maqsadi asosan jamiyat tomonidan belgilanadi, ya‘ni uning faoliyati jamiyatning kelajagi bo‘lmish yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilmog‘i lozim.

Pedagogik mahoratning ob‘ekti - bu insondir. Inson jamiyatning faol ishtirokchisi bo‘lib, ularning har biri o‘ziga hos hususiyatga ega va bu o‘qituvchidan har bir shaxsga o‘ziga hos yondoshishni talab etadi. Shuningdek, jamiyat rivoji bilan inson ongi va tafakkuri ham o‘zgarib boradi. U esa o‘qituvchidan doimiy ijodiy izlanishni talab etadi.

Pedagogik faoliyatning sub‘ekti - bu o‘qituvchi, ota-onalar va jamoadir. O‘qituvchi shaxsi, uning bilim va ko‘nikmalari tarbiyalanuvchilarga ma‘naviy- axloqiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu esa o‘qituvchidan o‘zini ma‘naviy jihatdan boyitib borishini talab etadi. O‘qituvchining asosiy tarbiya quroli esa uning mehnati, muloqot madaniyati, o‘qish, o‘yin kabi turli hil faoliyatidir.

Haqiqiy o'qituvchi pedagogik faoliyatning yuqoridagi komponentlaridan qanday foydalanishni, ya'ni ta'lim-tarbiya maqsadini to'g'ri qo'yib, sub'ekt va ob'ektni yangi pedagogik texnologiyalar asosida faollashtiradi hamda shunga mos vositalarni to'g'ri tanlay va qo'llay oladi.

O'qituvchilik kasbi kishiga ma'lum talablarni qo'yadi, lekin o'qituvchi bu talablarni qanday bajarayotgani bu talablarda xali aks etmaydi. O'qituvchining pedagogik jarayon qatnashchilari bilan muomalasi bu kishilarning o'zaro bir-birlariga bo'lgan shaxsiy munosabatlari sifatida ham qaraladi, ular pedagogik jarayon qatnashchilarining xatti-harakatlarida, xulqida, ish shakli va usullarida namoyon bo'ladi. Ular o'rtasidagi o'zaro ahloqiy baholashlar ham muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchida pedagogik bilimi, pedagogik zakovati, pedagogik qobiliyati, pedagogik texnika, o'quvchi bilan ishlashga bo'lgan ehtiyoji, siyosiy-g'oyaviy va madaniy tafakkuri, qat'iyatlilik, izlanuvchanlik, yangilikka intilishi, pedagogik takt, o'ziga va o'zgalarga bo'lgan talabchanlik kabi shaxsiy xususiyatlar shakllangan bo'lishi kerak.

Bundan tashqari o'qituvchi jamoada o'z o'rnini yaxshi bilishi, bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, ishini puxta rejalashtirishi, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, qiziqishlarini shakllantirishi, ta'limning pedagogik-psixologik asoslarini bilishi. Qolaversa, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, tarbiyada o'quvchiga individual yondoshuvi, ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish, tarbiyaning pedagogik psixologik asoslarini bilishi, darsdan tarbiyaviy ish metodikasini bilishi va amalda qo'llay olishi lozim.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogda nafaqat kuchli bilim, balki shu bilimlarini yetkaza oladigan pedagogik mahorat, pedagogik takt, muomala madaniyati va yuksak insoniy fazilatlar bo'lishi lozimdir. Bo'lajak o'qituvchiga xos bo'lgan barcha insoniy, tarbiyaviy, vatanparvarlik hissi, pedagogik mahorat va kasbiy sifatlarni shakllantirishda ustoz-shogird ananasi juda muhim ahamiyatga ega.

### **Fodalanilgan adabiyotlar:**

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2006, 148 b.
2. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: Pedagog, 2004, 34 b.
3. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat / S.A.Madiyarova va b. – T.: —Iqtisod- moliya, 2009, 137 b.
4. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Uslubiy qo'llanma D.Ro'zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. – T.: Nizomiy nomli TDPU, 2013, 27